CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01RAQAMLI ILMIY KENGASH
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SHAMURATOVA BARNO YUVBASAROVNA

MUTAFAKKIRLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (AR-ROZIY VA IBN SINONING ILMIY-FALSAFIY MEROSI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq – 2025

UDK: 608.1,130.1

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философи (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doktor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Shamuratova Barno Yuvbasarovna
Mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi (Ar-Roziy va Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy merosi misolida) …….....3

Шамуратова Барно Ювбасаровна
Методика формирования навыков здорового обзора жизни у молодёжи на основе социально-философских взглядов мыслителей (На основе научно-философского наследия Ар Рази и Ибн Сины) ……..……...25

Shamuratova Barno Yuvbasarovna
Methodology for deleloping healthy life review skills among young people based on the socio-philosophiacal views of thinkers (Based on the scientific and philosophical heritage of Ar-Razi and Ibn Sina) ……...……..….47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published ……. 52

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01RAQAMLI ILMIY KENGASH
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SHAMURATOVA BARNO YUVBASAROVNA

MUTAFAKKIRLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (AR-ROZIY VA IBN SINONING ILMIY-FALSAFIY MEROSI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4935 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xajiyeva Maksuda Sultanovna,** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xurvalieva Tarmiza Latipovna,** pedagogika fanlari doktori, professor; **Abdullaeva Shaxzoda Abdullaevna,** pedagogika fanlari doktori, professor.
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "30" 08 kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy). Tel.: (99871) 716-68-04; faks: (99871) 716-68-11; e-mail: tvchdpi@edu.uz.).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (354 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99871) 716-68-04; faks: (99871) 716-68-11.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "19" 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil "19" 08 dagi 40 raqamli reestr bayonnomasi)

U.N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor;

T.T.Kaziyeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, v.b. p.f.d, dotsent

R.A.Eshchanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning mashhur olimlari va mutafakkirlarining ijodidagi pedagogik g‘oyalarni o‘rganish va ular asosida insonning sir-sinoatini ochishga intilish har doim dolzarb ahamiyat kasb etgan. Shu boisdan ham atoqli qomusiy olimlar va mutafakkirlarning inson salomatligini yaxshilash va jismoniy barkamollikka erishishdagi o‘rni haqida pedagogik qarashlarini o‘rganish yoshlar hayotini nafaqat tubdan o‘zgartiradi, balki ularning axloqiy va ma’naviy tarbiyasini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Ar-Roziy va Ibn Sinolar jahon pedagogika tarixidagi eng buyuk olimlardan hisoblanadi. Ularning ilmiy-madaniy merosi shunchalik keng va serqirraki, ularning aqliy va axloqiy tarbiyaning uyg‘unligi haqidagi qarashlari nafaqat hozirgi zamon, balki o‘tgan davrlar hikmati va hayotiy tajribasidan kelib chiqib javob izlashga keng imkon beradi.

Jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalarida va ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan insonning mohiyati va tabiati, uning biologik, fiziologik, psixologik-pedagogik va kognitiv imkoniyatlari haqidagi bir qator ilmiy qoida va tushunchalar hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bu qarashlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Shuni ta’kidlash kerakki, Ar-Roziy va Ibn Sinolarning pedagogik qarashlari insonparvarlik va dunyoqarash tamoyili, aql va e’tiqod, falsafa va ilohiyot, fan va dinni uyg‘unlashtirish asosida shakllangan. Shu jihatdan ham allomalarning ilmiy-nazariy merosini o‘rganish va tadqiq etish bugungi kunda yoshlarning bilim va tafakkurini shakllantirish hamda rivojlantirishda dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar bugungi kunda shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarga qaratilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik barcha yoshlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning strategik loyihalarni yuzaga keltirish, mahoratini namoyish qilish, ayniqsa, yoshlar siyosatini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois mamlakatimiz yoshlari davlat qurilishi, yanada demokratik, samarali va adolatli jamiyat qurish yo‘lida amaliy ishlarga imzo chekmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston yoshlarini global muammolarni hal qilishga chaqirishda tashabbuskor sifatida ishtirok etmoqda. Shu boisdan ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ... yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashdir”[1], deb ta’kidlaydi. Bu esa hozirda jamiyatimizda yoshlar axloqiy tarbiyasini yuksaltirish fenomenining nazariy asoslarini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni qanchalik darajada dolzarbligini belgilaydi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidentishavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari; 24.12.2021 yildagi PQ-60-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Farmonlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim sifatini ta’minlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ar-Roziy va Ibn Sinolarning ijodini o‘rganishga qaratilgan ishlar nafaqat sharqda, balki g‘arbda ham keng ommalashgan. Jumladan, O‘zbek olimlaridan M.M. Xayrullayev[2], M. Boltayev[3], A. Zunnunov[4], K. Hoshimov[5], A. Boydavlatov[6], A. Abduvaliyev[7] va boshqa olimlar olib borgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, Abu Bakr Ar-Roziy va Ibn Sinolarning tibbiy, falsafiy, pedagogik qarashlari Markaziy Osiyo xalqlarining pedagogik merosining rivojlanishida muhim o‘rinni egallab kelgan.

MDH davlatlarida ham ushbu ikki mutafakkirning ijodiga bo‘lgan qiziqish ko‘plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Ibn Sinoning ilmiy merosiga qaratilgan tadqiqotlar B.D. Petrov[8], S.X. Nasr[9] tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa,

[2] Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Тошкент: Фан,1971. – 233 б.
[3] Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина великий мыслитель средневекового Востока. – Ташкент: Фан, 1980. – 164.
[4] Зуннунов А Педагогика назарияси. – Тошкент: Алоқачи, 2006. – Б. 35-39.
[5] Хошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – Б. 143-157.
[6] Boydavlatov A. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari va yoshlar tarbiyasiga ta’siri // Ta’lim va taraqqiyot, 2023-yil, 1-son.
[7] Abduvaliyev A. Ar-Roziy va Ibn Sino tibbiy ta’limotining zamonaviy artrologiya uchun ahamiyati. Tibb. fan. dokt. ... diss., – Toshkent, 2007.
[8] Петров Б.Д. Ибн Сина (Авиценна) 980-1037. – М.: Медицина, 1980. – 151 с.
[9] Наср С.Х. Философы ислама: Авиценна (Ибн Сина), Ас-Сухраварди, Ибн Араби. 2-е изд., испр. М. Садра 2022. – 152 с.

S. Xaydarovaning dissertatsiyasi Abu Bakr Ar-Roziyning falsafiy-axloqiy qarashlariga qaratilgan[10], K. Olimov, K. Askardayev[11], A.Sh.Komiliy[12], M.Dinorshoyev[13], M.Isoyev[14], N.Djurayeva[15]lar ham o‘z tadqiqotlarida Ar-Roziyning ilmiy merosini yoritib berishgan.

Xorijiy olimlardan, B. Asher, M. Meir[16], L.E. Gudman[17] Ar-Roziyning falsafiy qarashlarini tahlil qilgan bo‘lsalar, S. Sarah esa uning diniy qarashlarini, Islomiy fikrlarini izohlab o‘tgan[18]. P.E. Valkerning ishlarida Ar-Roziyning shaxs va jamiyat, xususan, siyosiy qarashlari joy olgan[19]. E.R. Aleksandrin[20], A.Bausanin[21] esa Ar-Roziyning G‘arb olimlari ijodiga ta’sirini tadqiq qilganlar.

D. Burrellning ta’kidlashicha, o‘tmishda yashab o‘tgan ko‘plab mutafakkirlardan farqli o‘laroq, Abu Ali ibn Sino hayoti haqida ko‘plab ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan[22]. Abu Ali ibn Sino o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muhitining homiysi edi. U Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lganligini ko‘plab xorijiy olimlar, jumladan, A.S. Sarrafzadeh, N. Sarafian, A.von Gladiss, A.V. Unterberg,.W.R. Lankschlar ta’kidlab o‘tishgan[23]. Biroq, yuqorida keltirilgan ishlarda Ar-Roziy va Ibn Sinoning sog‘lom turmush tarziga oid qarashlari kompleks planda, birgalikda, kombinatsion usulda ko‘rib chiqilmagan, bu esa ishimizning dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Urganch davlat universitetini 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi”ning 2.4-bandiga asosan Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yoshlarda sog‘lom turmush tarzi va ma’naviy tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda Ar-Roziy va Ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy

---

[10] Хайдарова С. Философско-этические взгляды Абу Бакра ар-Рази. Автореф. дисс. … канд. ф. н. – Душанбе, 2012.

[11] Олимов К., Аскардаев К. Абӯбакр Закарияи Розӣ – Донишманди ҷаҳоншумул. – Душанбе, 2016. – С. 3.

[12] Комилӣ А.Ш. Зиндагиномаи Муҳаммад Закариёи Розӣ. – Душанбе, 2016. – 62 с; Физика Абубакра ар-Рази / А.Ш. Комили. — М.: МБА, 2014. — 121 с.

[13] Диноршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази. – Душанбе, 2013.

[14] Исоев М. Общность и отличие этики Рази и Мискавайха // Известия Академии наук Республики Таджикистан. 1992., №4. – С. 46-55.

[15] Джураева Н.Н. Антропология Абу Бакра ар-Рази. Диссертация ... кандидата философских. Наук – Душанбе, 2021. – 159 с.

[16] Bar-Asher, Meir M. “Quelques aspects de l’éthique d’Abu Bakr al-Razi et ses origines dans l’oeuvre de Galien”. Studia Islamica 69 (1989): 5-38; 70 (1989): pp. 119-147.

[17] Goodman, Lenn E. “Razi’s Myth of the Fall of Soul: Its Function in his Philosophy”. In: George F. Hourani (ed.). Essays On Islamic Philosophy And Science. New York: State University, 1975. pp. 25-40.

[18] Stroumsa, Sarah. Freethinkers of Medieval Islam: Ibn al-Rāwandī, Abū Bakr al-Rāzī, and Their Impact on Islamic Thought. Leiden, Boston, Köln: Brill, 1999.

[19] Walker, Paul E. “The Political Implications of al-Rāzī’s Philosophy”. In: Charles E. Butterworth (ed.). The Political Aspects of Islamic Philosophy. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1992

[20] Alexandrin, E. R. 2002. “Razi and his Mediaeval Opponents: Discussions Concerning Tanasukh and the Afterlife”. Cahiers de studia iranica 26, pp. 397–409.

[21] Bausani, A. 1981. Un filosofo ‘Laico‘ del Medioeve Musulmano. Abu Bakr Muhammad Ben Zakarriya Razi. Rome.

[22] David B. Burrell; *"Aquinas and Islamic and Jewish Thinkers"*, 1993. (IF: 3)

[23] A S Sarrafzadeh; N Sarafian; A von Gladiss; A W Unterberg; W R Lanksch; *"Ibn Sina (Avicenna). Historical Note"*, Neurosurgical focus, 2001. (IF: 3)

qarashlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ar-Roziy va Ibn Sinoning yoshlarda sog‘lom turmush tarzi va ma’naviy tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirish borasidagi qarashlarining falsafiy hamda pedagogik jihatlarini ochib berish;

Ar-Roziy va Ibn Sinoning ma’naviy-axloqiy va falsafiy-pedagogik qarashlarining metodik xususiyatlari takomillashtirish;

Ar-Roziy va Ibn Sinoning inson salomatligini ta’minlash va ma’naviyatini tarbiyalsh borasidagi falsafiy-pedagogik qarashlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishning uslubiy texnologiyalarini takomillashtirish;

ta’lim oluvchilarda jismoniy madaniyatning falsafiy mohiyatini anglash bilan bog‘liq pedagogik-psixologik jarayonni takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ar-Roziy va Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik merosi tanlangan bo‘lib, tajriba sinovda Urganch davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika institutidan 693 nafar talaba ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti Ar-Roziy va Ibn Sinoning sog‘lom turmush tarzini yuksaltirish borasidagi pedagogik g‘oyalaridan zamonaviy oliy ta’lim tizimida foydalanish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari Ar-Roziy va Ibn Sinoning yoshlarda sog‘lom turmush tarzi va ma’naviy tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirish borasidagi qarashlarining falsafiy hamda pedagogik jihatlarini tahliliy o‘rganish va dominant ilmiy mulohazalarni retrospektiv tahlil usulida nazariy tavsiflash asosida aniqlashtirilgan;

yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi Ar-Roziy va Ibn Sinoning ma’naviy-axloqiy va falsafiy-pedagogik qarashlarining metakognitiv, multiperspektiv va sinergetik omillarni kasbiy faoliyatga tatbiq etishning ta’sirchan mexanizmlarini kun talablari rakursida aniqlash hamda o‘qitishning metodik komponentlariga kognitiv va pragmatik yondashuvlarga muvofiq integratsiyalsh asosida takomillashtirilgan;

yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni Ar-Roziy va Ibn Sinoning inson salomatligini ta’minlash va ma’naviyatini tarbiyalsh borasidagi falsafiy-pedagogik qarashlarini og‘zaki va yozma refleksiya, argumentatsiya, mobilizatsiya metodlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish va nazariy bilimlarni ta’lim oluvchilarning rivojlanish vektoriga muvofiq qo‘llashning ergonomik talablarini modelashtirish asosida takomillshtirilgan;

yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligi ta’lim oluvchilarda jismoniy madaniyatning falsafiy mohiyatini anglash, ajdodlarimizning ilmiy merosidan konstruktiv, interpretativ, transmissiv va

simulyativ yondashuvlarga muvofiq foydalanish hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari oila, jamoa, ustoz va shogird munosabatlarini optimallashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat. Ar-Roziy va Ibn Sinolarning sog‘lom turmush tarzi va jismoniy tarbiyani yuksaltirish borasidagi pedagogik g‘oyalarini yoritishda ular yashagan Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati, madaniyat va ilm-fan rivoji mutafakkirlar ijodiyotini anglashda ularning hayoti va ijodiy merosining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan. Bu esa zamonaviy pedagogika fanining nazariya va amaliyotini boyitish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari umumiy falsafa, pedagogika, etika, estetika, pedagogika tarixi, o‘quv-tarbiya ishlari metodikasi, maxsus kurslar, maxsus seminarlar, kurs va tezislar mavzulari bo‘yicha ma’ruza kurslarining tegishli mavzularini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlardan darsliklarning yangi avlodi, shuningdek, talabalar bilan o‘tkaziladigan o‘quv-tarbiyaviy, ma’naviy-axloqiy ishlardan muhim nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, usullar va ilmiy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiyalar va u haqdagi taqrizlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Ar-Roziy va Ibn Sinolarning sog‘lom turmush tarzini yuksaltirish borasidagi pedagogik g‘oyalari haqidagi ma’lumotlarni iste’molga kiritish, ularning ilmiy-ijodiy merosini jamiyat, omma orasida, xususan, talaba-yoshlar tafakkuriga yetkazish, uning ma’rifiy, ta’limiy, didaktik, axloqiy g‘oyalarini ta’lim-tarbiya, ilm-fan sohasiga keng tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ba’zi nazariy-ilmiy, diniy-falsafiy, uslubiy jihatlarini yoritish va aniqlashda Ar-Roziy va Ibn Sino ijodining murakkab, muammoli tomonlariga aniqlik kiritishda faylasuf, pedagog, sotsiolog, metodist tadqiqotchilar ishlariga murojaat qilindi. Ar-Roziy va Ibn Sinolarning o‘zbek, tojik, rus, turk, arab, fransuz va ingliz tillarida chop etilgan asarlari manba bo‘lib xizmat qildi, shuningdek, unlaring xorijiy mamlakatlarda o‘rganilish tarixi va tarjima qilingan ijodi namunalariga e’tibor qaratildi.

Mazkur tadqiqot Ar-Roziy va Ibn Sinolarning sog‘lom turmush tarzini yuksaltirish borasidagi qarashlari bilan qiziquvchilar uchun targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda qo‘llaniladi, shuningdek, o‘quv fanlari darslarida dasturlar ishlab chiqishda mazkur tadqiqot materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: “Mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish

metodikasi (Ar-Roziy va Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy merosi misolida)” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida: mutafakkirlarning ilmiy merosini bugungi kun talablari rakursida aksiologik-germenevtik deskripsion tahlil qilish asosida ochib berilgan Ar-Roziy va Ibn Sinoning yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish borasidagi qarashlarining falsafiy hamda pedagogik jihatlariga oid xulosalar Xorazm viloyati teleradiokanali tomonidan efirga uzatilgan “Assalom, Xorazm” dasturining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 18-apreldagi 570-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar uchun sog‘lom turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qiluvchi zamonaviy falsafiy yondashuvlarni ishlab chiqishda keng foydalanilgan;

tadqiqot obektiga xos metakognitiv (chuqur tafakkurga qaratilgan), multiperspektiv (keng qamrovli) va sinergetik (birgalikdagi harakat) omillarni kasbiy faoliyatga tatbiq etishning amaliy mexanizmlarini gumanitar fanlarni o‘qitishning didaktik va metodik komponentlariga kognitiv va pragmatik yondashuvlar orqali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan Ar-Roziy va Ibn Sinoning ma’naviy-axloqiy va falsafiy-pedagogik qarashlarining metodik xususiyatlariga oid taklif va tavsiyalar “Globallashuv asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug‘i 2024 yil 6 sentyabr № 333- son.) Natijada, talabalarning ma’naviy-axloqiy va falsafiy-pedagogik qarashlari takomillashgan;

ta’lim oluvchilarda jismoniy madaniyatning falsafiy mohiyatini anglash bilan bog‘liq pedagogik-psixologik jarayonning samaradorligini oshirishda ajdodlarimizning ilmiy merosidan konstruktiv, interpretativ (tatbiqiy), transmissiv (aloqadorlik) va simulyativ (modellashtirish) yondashuvlarga muvofiq foydalanishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali tomonidan bajarilgan “AI-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarda umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024-yil 14-iyundagi 239-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarda jismoniy madaniyatning falsafiy mohiyatini anglash sog‘lom turmush tarzini yuksaltirish bo‘yicha xulosalar chiqarish imkoniyati yaratilgan;

og‘zaki va yozma refleksiya (tasvirlash), argumentatsiya (dalillash), mobilizatsiya (aloqadorlik va bog‘liqlik) metodlarini ta’lim oluvchilarning rivojlanish vektoriga muvofiq qo‘llashning ergonomik talablari ilmiy modellashtirish asosida takomillashtirilgan Ar-Roziy va Ibn Sinoning inson salomatligini ta’minlash borasidagi falsafiy-pedagogik qarashlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishning uslubiy texnologiyalariga oid takliflardan Xorazm viloyati teleradiokanali tomonidan efirga uzatilgan “Assalom Xorazm” dasturining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 18-apreldagi 570-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar uchun sog‘lom turmush tarzini yuksaltirishga

xizmat qiluvchi zamonaviy falsafiy yondashuvlarni ishlab chiqishda keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiyalardagi ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini chop etish etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 ta respublika jurnallarida va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Ar-Roziy va Ibn Sinoning ilmiy merosida yoshlar tarbiyasi muammosining nazariy-metodologik asoslari"** deb nomlanadi. Mazkur bobda Razes va Abu Bater nomi bilan mashhur bo'lgan qomusiy olim Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya Ar-Roziy (865-925) o'rta asrlarda ham g'arb shifokorlari, ham faylasuflari va kimyogarlari tomonidan tan olingan va hurmatga sazovor bo'lganligi, alloma o'z davri ilm-fanining rivojlanishi va takomillashuviga salmoqli hissa qo'shganligi, nafaqat islom olami, balki jahonning mashhur olimlari orasida ham munosib va yuksak mavqeni egallaganligi ochib berilgan. Ar-Roziy g'oya va fikrlarini o'rganishdan shunday xulosa kelib chiqadiki, axloq inson tanasida go'zal axloqni, salbiy va ijobiy fazilatlar haqida to'g'ri tasavvurni shakllantiradi. Bu ta'limotni o'rganar ekan, inson ham o'z tabiati, ma'naviy quvvati, hayoti va inson faoliyatining mazmuni bilan tanishadi, hayot go'zalliklaridan bahramand bo'lishni, iztiroblardan qochishni o'rganadi. Ar-Roziyning axloqiy nazariyasi "zavq" olishga asoslanadi. Bu metod asosida inson axloqi va turmush tarzining barcha masalalari tahlil va muhokama qilinadi. Mutafakkir "zavq"ning ma'nosini rohatlanishning ozodlik va iztirobdan xalos bo'lishligi bilan izohlaydi. "Zavq quvonch va baxt hissining, iztirob esa qayg'u va g'amning sifatidir. Ta'sir etuvchi kuch ta'sir obyektining tabiiy holatini o'zgartirganda og'riq va azob paydo bo'ladi va uning tabiiy holati barqarorlashganda zavqlanish hissi yuzaga keladi[24]".

[24] Хайдарова С. Философско-этические взгляды Абу Бакра ар-Рази. Автореф. Дисс. … канд. ф. н. – Душанбе: 2012.

Tadqiqotda Ibn Sinoning pedagogik qarashlariga ham e’tibor qaratiladi. Ibn Sino saxiylikni eng yaxshi insoniy fazilatlardan biri deb biladi. Shaxsiy fazilatlar har bir insonga xosdir, chunki inson tabiatan ezgulikka intiladi va muhtojlarga yordam berishga harakat qiladi. Saxiylik fidokorona bo‘lishi va ezgu maqsad sari yo‘naltirilishi kerak. Ibn Sino hasadni, xudbinlikni, ochlikni, adashishni, zaiflik va qobiliyatsizlikni tanqid qilgan. Ibn Sino turli xalqlar va millatlar o‘rtasidagi do‘stlik tarafdori edi. U xalqlar do‘stligini buyuk kuch, jamiyat taraqqiyoti, xalq davrining poydevori deb bilgan, xalqlar o‘rtasidagi chinakam do‘stlik tarafdori bo‘lgan. Haqiqiy do‘stlik insonni g‘ururlantiradi, ruhini ko‘taradi, deb hisoblagan. Do‘stlik odamlar uchun havo kabi muhim bo‘lib, do‘stlik samimiylikni talab qiladi. Do‘stlar bir-birini yoqtirishlari, ular bir-birlariga mehribon va rahmdil bo‘lishlari, hayotning quvonchini, mashaqqat va baxtsizliklarini birga baham ko‘rishlari lozim degan fikrlarni ilgari surgan. Ibn Sino baxtni kamolot darajasi deb hisoblab, har bir inson unga erishish uchun harakat qilishi kerakligi, bu esa insonning xulq-atvori va odobiga bog‘liqligini ta’kidlagan. Ibn Sino muhabbatni inson hayotida zarur va qadrli deb hisoblab, faqat o‘zaro muhabbat baxtning asosi bo‘lishi mumkinligini aytgan. Ibn Sinoning fikricha, muntazam ta’lim olish 6 yoshdan boshlanadi. Chunki bu yoshda bola jismonan ta’lim va bilim olishga tayyor bo‘ladi. Ibn Sino jamoaviy ta’lim tarafdori bo‘lib, har bir ota o‘z farzandini maktabga topshirishi kerakligini aytib o‘tgan. Maktabning vazifasi yaxshi xulq-atvor, nutq va xatti-harakatni tarbiyalashdir. Maktabda bolalar do‘stlashishlari, bir-biriga yordam berishlari, bilim olishda raqobatlashishi kerak. Ibn Sino Qur’on, ona tili, tarix, geografiya, jismoniy tarbiya va adabiyotni ta’lim-tarbiya roliga kiritishni zarur deb hisoblagan. “Abu Ali ibn Sino fikricha, bilimsiz kishilar johil bo‘ladi. Ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qo‘shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta’kidlaydi[25]”. Abu Ali ibn Sino xalq ertaklari va dostonlarida ham iste’dodli ma’naviyatli shaxs sifatida ishtirok etadi. Masalan, “Yolg‘on shifokor”, “Ahsan”, “Foydali faryod”, “Ibn Sino va podshoh” dostonlarida Ibn Sinoning ruhiy va jismoniy kasalliklarni davolashi turli yo‘llar va usullarda o‘z aksini topgan.

Bobda, tadqiqot maqsad va yo‘nalishlariga yaqin va bunga bog‘liq va aloqador mavzularda olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlildan kelib chiqqan holda quyidagi ilmiy va metodik tavsiyalar ko‘rsatib berilgan:

– talabalar Ar-Roziyning axloqqa oid uchta asari, ya’ni “Kitob tibb arruxoniy” (“Ruxiy davolash kitobi”), “Kitob siyrat al-falsafiya” (“Falsafiy xayot tarzi xaqida kitob”) va “Maqola fi amorat iqbol va ad-davlati” (“Baxt-saodat va boylikka erishish yo‘llari haqida risola”) asarlarini mustaqil ta’lim orqali o‘qib, o‘rganib olish;

– Ar-Roziy va Ibn Sinoning ma’naviy-axloqiy qarashlari haqidagi talabalar bilimini auditoriyadan tashqari tadbirlar asosida rivojlantirish;

– talabalar bilish faoliyatida Ar-Roziyning Ruhning mavjudligi, abadiyligi hamda tozaligi har bir insonning hayotlik davrida qilgan amallariga bog‘liq bo‘lishi kabi fikrlarini tahlil qilishlari va bu g‘oyalari asosida insonparvarlik xislatlarni egallab olishga erishish;

[25] Ибн Сино Китоб аш – шифо (Ал – Хитоба) Қоҳира – 1954 147-б

– talabalar Ar-Roziyning axloqqa bag‘ishlangan eng mashhur asari “Tibbi ruhoniy” asari hisoblanishi va alloma axloqshunoslikni insonda xushhulqlikni tarbiyalash va badhulqlikni yo‘qotish yo‘llari hamda usullari haqidagi fan ekanligi borasidagi fikrlarini tahlil eta olishlari lozim;

– talabalar falsafa, pedagogika fanlari orqali Abu Ali ibn Sinoning ta’lim-tarbiya va axloq borasidagi (“Burch haqida risola”), “Risola fi tazkiyat an-nafs” (“Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola”), ”Siyosat al-badan” (“Badanni boshqarish”), ”Kitob al-insof” (“Adolat haqida kitob”), “Tadbir al-manozil” (“Turar joyni boshqarish choralari”) kabi asarlarining mazmun-mohiyati bo‘yicha bilimga ega bo‘lish.

– Al-Roziy va Ibn Sinolarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini falsafa, etika fanlarida talabalarni qiyosiy taqqoslab olishga erishish.

Bobda falsafa fani orqali talabalarning bilimini rivojlantirishda oqituvchining o‘qitish metodikasi asosiy obyekti mavzuga oid bergan ma’lumoti va bilimi hamda uslubiy ta’minoti bilan belgilanishi haqida fikr yuritiladi. Oliy ta’limda talabalarning Ar-Roziy va Ibn Sinoning falsafiy qarashlari bo‘yicha bilimining rivojlanishi asosan o‘qituvchi va talaba faoliyati bilan amalga oshiriladi. Bunda talabalarning bilimini shakllantirish va rivojlanishda o‘qitishning asosiy funksiyalari – ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, funksiyalari: tashkiliy, strukturaviy, psixologik, integratsiya-differensiatsiya, maslahat, nazorat-diagnostika, korreksion, refleksiv, fasilitatsion kabi funksiyalar bilan boyitish lozim.

Tahlil etilgan ilmiy farazlarga tayangan holda quyidagi empirik-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ilmiy ish tajriba ishlari vositasida sinovdan o‘tkazildi:

– talabalarda axloqiy-ma’naviy xusisiyatlarni rivojlantirishda fan o‘qituvchisining dars jarayonda faolligini ta’minlash;

– fan o‘qituvchisi talabalarning Ar-Roziy va Ibn Sino asarlarini qunt bilan o‘rganish va ularning ma’no-mazmunini qiyosiy tahlil etgan holda asarlardagi pedagogik qarashlarni anglab yeta olishini yo‘lga qo‘yish;

– yosh faylasuflar va yosh pedagoglar to‘garaklar orqali Ar-Roziy va Ibn Sino asarlarining pedagogik va falsafiy jihatlarini ochib berishga undash hamda mutaxasislar o‘rtasida talabalarda ushbu mutafakkirlarning barcha asarlari borasida bilim va dunyoqarashini rivojlantirishni ta’minlash;

– Ar-Roziy va Ibn Sino axloqiy va falsafiy asarlarini o‘rganish bo‘yicha ta’lim jarayoni va auditoriyadan tashqari faoliyatlarda o‘zaro fanlararo integratsiyasini qaror toptirish;

– talabalar mutafakkirlarning axloqiy-ma’naviy, falsafiy qarashlari metodik va didaktik omillarini o‘rganish;

– OTMni barcha o‘quv va didaktik ta’minotini inobatga olgan holda talabalarni falsafiy va pedagogik tamoyillariga oid metodik va innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish.

Tadqiqotni olib borish jarayonida Ar-Roziy va Ibn Sino axloqiy va falsafiy qarashlarini talabalarning sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishning metodik tizimini takomillashtirishga oid empirik-metodik tavsiyalarni amaliyotga bevosita tatbiq etish hamda samarali natijalarga erishish uchun asoslangan falsafa fanida qo‘llaniladigan aralash dars turining tarkibiy, tashkiliy, tuzilmaviy shakllari hamda Ar-Roziy va Ibn

Sinolarning sog‘lom turmush tarzi borasidagi didaktik qarashlarining falsafa fanlar turkumiga taqdim etish xaritasi ishlab chiqilganligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ar-Roziy va Ibn Sinoning ilmiy merosi asosida talaba-yoshlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda Ar-Roziy va Ibn Sinoning sog‘lom turmush tarzi falsafasi borasidagi qarashlari, mutafakkirlarimizning ma’naviy merosidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ahamiyati hamda ularda falsafa va pedagogika fanlarini uyg‘unlashtirish asosida sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish metodlari ko‘rsatib berilgan.

Bobda talabalarning bilimlarini sinashda konseptual xarita metodikasidan foydalanish ham izohlab berilgan. Mutafakkirlarning sog‘lom turmush tarziga oid g‘oyalarini o‘rgatishda konseptual xaritalardan foydalanish algoritmi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

Talabalarning bilimlarini sinashda konseptual xarita metodikasidan foydalanildi. Mutafakkirlarning sog‘lom turmush tarziga oid g‘oyalarini o‘rgatishda konseptual xaritalardan foydalanish algoritmi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1-bosqich. Asosiy konseptlarni tanlash va saralash. Bunda Ar-Roziy va Ibn Sinoning sog‘lom turmush tarzi masalasiga oid asosiy konsept, tushuncha va g‘oyalari, masalan, salomatlikni saqlash, ong va tananing o‘zaro aloqasi kabi konseptlar aniqlanadi.

2-bosqich. Asosiy konseptlar xaritasini tuzish. Elektron doskada yoki raqamli vositalar yordamida asosiy konseptlar xaritasi yaratiladi.

Xaritada “Ar-Roziy va Ibn Sinoning salomatlikni saqlash, ong va tananing o‘zaro aloqasi haqidagi g‘oyalari” markaziy konseptga qo‘yiladi. Coggle dasturidan foydalangan holda ishlab chiqilgan Ar- Roziy va Ibn Sinoning sog‘lom turmush tarziga oid qarashlarining namunaviy konseptual xaritasi keltirilgan.

3-bosqich. Talabalarning ishtiroki. Talabalar kichik guruhlarga ajratiladi va har bir guruhga Ar-Roziy yoki Ibn Sinoning axloqiy tarbiyaga yondashuvi bilan bog‘liq aniq konsept yoki g‘oya beriladi.

4-bosqich. Konseptual xaritalarni shakllantirish. Talabalar o‘z guruhlarida o‘ziga berilgan periferik subkonseptni atroflicha tadqiq qilib, uni markaziy konsept bilan bog‘lagan holda konseptual xarita tuzishlari kerak. Ular konseptlar orasidagi munosabatlarni ko‘rsatish uchun o‘qlar, chiziqlar va teglardan foydalanishlari mumkin.

5-bosqich. Guruh taqdimotlari. Har bir guruh o‘z konseptual xaritasini talabalarga taqdim etib, asosiy tushuncha va uning mutafakkirlarning axloqiy tarbiya haqidagi g‘oyalari bilan salomatlikni saqlash, ong va tananing o‘zaro aloqasi bog‘liqligini tushuntiradi. Munozara va savollar beriladi, fikr almashinadi.

6-bosqich. Markaziy xarita kengaytiriladi. Har bir guruh o‘z konseptual xaritasini taqdim etar ekan, ularning subkonseptlari va aloqalari markaziy konseptual xaritaga qo‘shib boriladi. Natijada, asta-sekin mutafakkirlar g‘oyalarining keng qamrovli, ulkan konseptual xaritasi yaratiladi.

7-bosqich. Munozara va tanqidiy tahlil. Barcha guruhlar o‘z xaritalarini taqdim etgandan so‘ng, konseptlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, mutafakkirlar g‘oyalaridagi asosiy mavzular, ularning salomatlikni saqlash, ong va tananing o‘zaro aloqasi bog‘liqligi

haqida suhbat o‘tkaziladi, ularning g‘oyalari asosida zamonaviy ta’lim-tarbiya dars va mashg‘ulotlarida qanday qo‘llash mumkinligi haqidagi real misollar muhokama qilinadi.

8-bosqich. Mustaqil ta’limni amalga oshirish. Talabalarga Ibn Sino yoki Ar-Roziyning salomatlikni saqlash, ong va tananing o‘zaro aloqasi g‘oyalari bo‘yicha o‘rganganlarini umumlashtiruvchi individual konseptual xaritalarini tuzish mustaqil ta’limni bajarish sifatida amalga oshiriladi.

9-bosqich. Baholash va fikr bildirish. Talabalarning o‘rganilgan konsept va tushunchalarni tushunishini va ularni xaritalarda bog‘lay olish qobiliyati baholanadi, ularga fikr-mulohaza bildiriladi va bajarilgan loyihaning yanada yaxshilanish imkoniyatlari tushuntirib beriladi.

Sog‘lom turmush tarzining mohiyatini tushunish uchun eng avvalo uning maxsus mazmunini aniqlash lozim. Sog‘lom turmush tarzi oliy ta’lim tizimida har xil fanlar doirasida o‘rganiladi, Bular: “Falsafa”, “Etika”, “Inson falsafasi”, “Jamiyat falsafasi”, “Adaptiv jismoniy tarbiya va sport” “Adaptiv va sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya”. Mazkur fanlar doirasida Ar-Roziy va Ibn Sinoning falsafiy va pedagogik qarashlariga asosan talabalarga ta’lim berishda samarador bo‘lgan falsafiy va pedagogik model ishlab chiqildi.

Bobda, Ar-Roziy va Ibn Sinoning axloqiy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi borasidagi qarashlaridan oliy ta’lim tizimida foydalanishning pedagogik modeli, maqsad, metodologik aspekt, yondashuvlar va darajalar asosida ko‘rsatib beriladi.


Modelning asosiy *maqsadi* sifatida Ar-Roziy va Ibn Sinoning ma’naviy-axloqiy, jismoniy, ijtimoiy-madaniy, reproduktiv, tibbiy g‘oyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishning metodologik jihatlarini aniqlash keltirilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator zamonaviy metod va usullarga tayanilishi ko‘zda tutilgan.

Ishlab chiqilgan pedagogik modelimizning *metodologik aspektini* Ar-Roziy va Ibn Sinoning qarashlaridan *kolloborativ va kooperativ ta’lim (hamkorlikda ishlash) vositasida rivojlantirishda og‘zaki va yozma refleksiya (tasvirlash), argumentatsiya (dalillash), mobilizatsiya (aloqadorlik va bog‘liqlik), konseptual xarita metodlarini* joriy etish orqali yoshlarning axloqiy tarbiyasini va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tashkil qiladi. Shu o‘rinda, metodologik asosimizning har bir qismi izohini tahlil qilib o‘tish va ulardan foydalanish tartibini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Tengdoshlarning bir-birini o‘qitishi: Talabalar bir-birlariga Ar-Roziy va Ibn Sinoning axloqiy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi haqidagi g‘oyalarini tushuntirib beradilar. Savollar beradi va javob topadilar. Talabalar birgalikda ishlaganda, ular bir-biriga o‘zlari bilgan tushunchalarni tushuntira oladilar. Talabalar jamoada ishlashda ko‘proq g‘ayratli va faolroq bo‘ladi. Guruh uchun ularning g‘oyalari muhimligini bilish ularni ko‘proq ishtirok etish va o‘rganishdan zavqlanish istagini uyg‘otadi. Bu esa talabalarda motivatsiya va faollikni oshiradi.

Muammoli vaziyatlar bilan ishlash. Hamkorlikda o‘rganish muammoni guruh sifatida hal qilishga urg‘u beradi, ya’ni talabalar muammolarni birgalikda hal qilish va birgalikda yechim topish orqali muammoli vaziyatlarga yechim topishadi.

Dessertatsiyada kooperativ metodning umumiy maqsadi va tuzilishi borasida ham fikr yuritiladi.



1-rasm. Ar-Roziy va Ibn Sinoning axloqiy tarbiya va sog'lom turmush tarzi borasidagi qarashlaridan oliy ta'lim tizimida foydalanishning pedagogik modeli

Ushbu modelda Ar-Roziy va Ibn Sinoning axloqiy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi borasidagi qarashlaridan oliy ta’lim tizimida foydalanishning maqsadi va bajarilishining metodologik asosi, qamrab olinadigan nazariy tamoyillar, shuningdek, talabalar bilimini baholash mezonlari va darajalari hamda kutilayotgan natija keltirilgan.

Kooperativ metodning umumiy maqsadi har bir guruh ma’lum bir maqsadni amalga oshirish uchun birgalikda ishlaydi. Bu esa talabalarni bir-birlariga yordam berishga, o‘zaro bog‘liqlikni his qilishga va hamkorlik qilishga undaydi.

1-bosqich. Ar-Roziyning tibbiy axloq haqidagi g‘oyalari. Talabalar guruhlarga bo‘linib, Ar-Roziyning tibbiy axloq haqidagi asarlaridan parchalarni o‘rganadilar, ularni tahlil qiladilar, zamonaviy tibbiyot axloqi bilan solishtiradilar va o‘z fikrlarini baham ko‘rishadi.

2-bosqich. Ibn Sinoning sog‘lom turmush tarzi haqidagi g‘oyalari. Talabalar Ibn Sinoning sog‘lom ovqatlanish, jismoniy mashqlar, uxlash va ruhiy sog‘liqni saqlash haqidagi tavsiyalarini o‘rganadilar, ularni zamonaviy ilmiy bilimlar bilan solishtiradilar va o‘zlarining sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha rejalar tuzadilar.

3-bosqich. Guruh a’zolari bir-birlariga bog‘liq bo‘lib, har bir a’zoning muvaffaqiyati umumiy natijaga ta’sir qiladi. Talabalar o‘z hissalarini qo‘shishga javobgar bo‘ladilar. Bu esa ularning o‘rganishga jiddiy yondashishini ta’minlaydi.

4-bosqich. Guruh a’zolari birgalikda muhokama qilish, rejalar tuzish va natijalarni baholash uchun vaqt ajratadilar.

Kollaborativ va kooperativ ta’lim usullari talabalarga Ar-Roziy va Ibn Sinoning asarlarida axloqiy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi haqidagi g‘oyalarini chuqurroq tushunishga, ularni amalda qo‘llashga va muhokama qilishga yordam beradi. Bu usullar talabalarning o‘rganishga qiziqishini oshiradi. Ularning o‘zaro hamkorlik qilish va o‘z fikrlarini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metod talabalarga turli vaziyatlarda axloqiy qoidalarni qo‘llash, o‘z harakatlarining oqibatlarini anglash va muammolarni hal qilish uchun turli yechimlarni ko‘rib chiqishga yordam beradi.

Kollaborativ ta’lim Ar-Roziy va Ibn Sinoning pedagogik g‘oyalari bilan uyg‘unlashganda faol ishtirok, talabalarning o‘zaro munosabati, ularning muammolarni yechish qobiliyatini oshiradi. Bu kombinatsiya talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini va yangi bilimlarni egallash qobiliyatini oshirishi mumkin, shu bilan birga qo‘llab-quvvatlovchi va hamkorlikdagi ta’lim muhitini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim tizimida talabalarni kollaborativ va kooperativ ta’lim vositasida Ar-Roziy va Ibn Sinoning falsafiy qarashlarini o‘qitish jarayonini og‘zaki va yozma refleksiya (tasvirlash), argumentatsiya (dalillash), mobilizatsiya (aloqadorlik va bog‘liqlik), konseptual xarita hamda flip metodlari orqali optimallashtiriladi.

Refleksiya metodida Ar-Roziy va Ibn Sinoning pedagogik qarashlari o‘qitilishidan oldin, talabalardan ular haqidagi o‘zlarida mavjud bo‘lgan bor bilimlarini yozib olishlari so‘raladi. Shundan keyin, ularga mutafakkirlarning g‘oyalari turli shakllar, metod va usullar orqali o‘rgatiladi. Ushbu jarayon yakunida esa, ulardan yana mutafakkirlar haqida olgan bilimlarini yozishlari so‘raladi. So‘ngra talabalar o‘zlarining birinchi refleksiyasi va ikkinchi yakuniy refleksiyasini solishtirib, kerakli xulosalarni chiqarishadi. Ar-Roziy va Ibn Sinoning jismoniy

tarbiyaga oid pedagogik g‘oyalarini o‘qitishda refleksiya usulidan foydalanish, talabalarni tanqidiy fikrlashga, mutafakkirlarning falsafiy va ilmiy bilimlarini chuqurroq idrok etishga jalb qilishda qimmatli yondashuv sifatida xizmat qiladi. Ushbu metoddan quyidagi shakllarda foydalanish mumkin:

a) talabalarga Ar-Roziy va Ibn Sinoning hayoti va turli sohalarga, jumladan, falsafa, tibbiyot va fanga qo‘shgan hissasi haqida umumiy ma’lumot berish, hamda ularning g‘oyalari ahamiyati va ularning ilm-fan rivojiga ta’sirini o‘rgatish;

b) Ar-Roziy va Ibn Sino asarlaridan tegishli matnlar yoki parchalar berib, undagi asosiy tushuncha va g‘oyalarni aniqlab, o‘qish va o‘rganishga undash;

c) talabalardan Ar-Roziy va Ibn Sinolarning axloqiy tarbiyaga oid g‘oyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan jurnallar yoki ilmiy manbalarda keltirilgan maqola, tezis va tadqiqotlarni o‘qish va tahlil qilishga yo‘naltirish, o‘qib bo‘lgach, matnga dastlabki fikrlarini, savollarini va munosabatlarini yozishga undash;

d) Ar-Roziy va Ibn Sinoning axloqiy tarbiya haqidagi pedagogik g‘oyalarini chuqurroq o‘rganishga undaydigan bir qator mulohazaviy savollarini taqdim etish namunaviy savollar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Ar-Roziy va Ibn Sino ijodidagi markaziy tushuncha yoki tamoyillar nimalardan iborat?

Ularning g‘oyalari o‘z davrining boshqa falsafiy yoki ilmiy harakatlari bilan qanday bog‘liq?

